XALQ DEPUTATLARI URGANCH TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

Urganch tumani, Mustaqillik ko`chasi, 1-uy, +998 62 352 1818, 220500

2025-yil 29-dekabr VII-17-125-12-173-K/25 Urganch tumani

Urganch tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-16-151-12-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 29-dekabrdagi 04-7-09/14139-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Urganch tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-16-151-12-0-K/25-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Urganch tumani mahalliy byudjetining 2026-yilgi daromadlari **135 mlrd. 948 mln. 197 ming. so‘m** va xarajatlari esa **135 mlrd. 948. mln 197. ming so‘mga** ma'lumot uchun qabul qilinganligi hamda Urganch tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **985 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zahira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 mlrd. 701 mln. 388 ming. so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zahira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta'minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig’i J.Xalmetov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari R.Sabirov tuman soliq inspeksiyasi J.Egamov bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlarni joylashtirib borilishini ta'minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror 2026-yil 1-yanvardan kuchga kirishi munosabati bilan Xalq deputatlari Urganch tuman kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-021-12-173-K/23-son qarorlai o‘z kuchini yo‘qotgan hisoblansin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **SULTANOV GAYRATJON PO‘LATOVICH**

Xalq deputatlari Urganch tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-125-12-173-K/25 -son
qaroriga
1-ilova

Urganch tumani mahalliy byudjeti daromadlarining

2026-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/P	Daromad turlari	Jami
JAMI DAROMAD		**135948 197**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1739 480,0
2	Foyda solig‘i	3718 350,0
3	Aylanmadan olinadigan soliq	16312 000,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	18660 850,0
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1871 000,0
	Aksiz solig‘i jami	0,0
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	0,0
	Pivo	0,0
6	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	0,0
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13868 000,0

8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	18185 247,0
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	24875 000,0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	23419 000,0
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	1366 000,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5158 800,0
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	7328 000,0
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	2931 200,0
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0,0
14	Davlat boji	3163 000,0
15	Yig‘imlar	808 600,0
16	Jarimalar	2319 870,0
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	483 000,0

Xalq deputatlari Urganch tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-125-12-173-K/25 -son
qaroriga
2-ilova

"2026-yil uchun Urganch tumanining mahalliy byudjetidan mablag' oluvchilariga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdori"

ming so`m

T/r	Tuman byudjetidan mablag‘ oluvchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**135948 197**
1	Maktabgacha va Maktab ta'limi bo‘limi	37946 523
	shundan:	
	"Mening maktabim"	2719 200
2	Madaniyat bo‘limi	9067 203
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	6640 596
4	Sport bo‘limi	6770 867
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1659 618
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	3942 549
7	Urganch tuman suv yetkazib berish xizmati Davlat muassasasi	1564 463
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2666 605
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	169 738
10	Hokimiyat	46009 140
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	28288 963
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	2487 141
	Zahira jamg‘armasi	1701 388
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	983 128
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	63 570
	Axborot-kutubxona markazlari	919 558
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	18527 767
13	Boshqa tashkilotlar	0